


O'zbekiston
Respublikasining
Tashqi savdo
aylanmasi
(2018 yil yanvar-
avgust)


*Tashqi savdo tovar
aylanmasi dinamikasi,
mln. AQSh dollari*

2018 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 20,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,5 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 8,6 mlrd. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 4,4 %) va import hajmi 12,0 mlrd. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 31,2 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 3,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018 yilda
tovarlarning oylik
eksport-import
ko'rsatkichlari
dinamikasi**
mln. AQSh dollari



2018 yil yanvar-avgust oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

Respublikada tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % oshdi va 38,8 % ga yetdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-avgust oylarida 66,8 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi 61,2 %ga tushdi.

Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)

	Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
					ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
	Xitoy	3 930,5	1 737,4	2 193,1	19,1	125,3 ↑
	Rossiya	3 771,3	1 389,9	2 381,3	18,3	124,4 ↑
	Qozog'iston	1 945,8	966,1	979,7	9,4	148,4 ↑
	Turkiya	1 358,0	562,0	796,0	6,6	140,6 ↑
	Koreya Respublikasi	1 069,5	60,6	1 009,0	5,2	127,1 ↑
	Germaniya	458,2	28,1	430,0	2,2	107,5 ↑
	Afg'oniston	428,8	427,5	1,3	2,1	111,3 ↑
	Latviya	315,5	28,5	287,0	1,5	172,2 ↑
	AQSh	296,8	19,9	276,8	1,4	183,7 ↑
	Ukraina	291,2	64,5	226,8	1,4	167,5 ↑
	Belarus	253,5	24,7	228,8	1,2	3,1 b. ↑
	Qirg'iziston	249,0	162,9	86,0	1,2	143,4 ↑
	Tojikiston	243,0	143,1	99,9	1,2	152,3 ↑
	Yaponiya	219,0	8,9	210,0	1,1	2,1 b. ↑
	eron	204,8	127,5	77,4	1,0	108,5 ↑
	Frantsiya	195,1	117,3	77,8	0,9	118,8 ↑
	Hindiston	183,5	16,9	166,7	0,9	80,4 ↓
	Litva	179,3	6,9	172,4	0,9	100,7 ↑
	Italiya	177,1	15,7	161,5	0,9	151,6 ↑
	Turkmaniston	140,8	27,5	113,3	0,7	112,0 ↑

**Respublikaning
eksporti**

2018 yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi 8,6 mlrd. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 4,4%) teng bo'ldi. eksport tarkibida tovarlar 76,9 % ulushga ega, bular asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari (20,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,6 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,2 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
eksport	8577,5	104,4	100,0	3333,6	128,2	100,0	5243,9	93,3	100,0
Paxta tolasi	168,0	64,6	2,0	3,1	34,4	0,1	164,9	65,6	3,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	741,7	147,0	8,6	498,9	145,8	15,0	242,8	149,5	4,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	617,2	109,0	7,2	247,2	111,6	7,4	370,0	107,3	7,1
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1748,6	166,5	20,4	862,7	171,5	25,9	885,9	161,9	16,9
Qora va rangli metallar	556,4	97,9	6,5	82,2	94,6	2,5	474,2	98,5	9,0
Mashina va asbob uskunalar	131,1	61,4	1,5	96,3	71,8	2,9	34,8	43,8	0,7
Xizmatlar	1981,3	123,0	23,1	988,2	128,5	29,6	993,1	117,9	18,9
Boshqalar	2633,2	76,5	30,7	555,0	103,8	16,6	2078,2	71,5	39,6

2018 yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan
ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
meva mahsulotlari	289,6	177,4	alkogolli va alkogolsiz ichimliklar	7,9	67,5
sabzavot mahsulotlari	218,8	159,2	qayta ishlangan meva- sabzavot mahsulotlari	18,4	93,9
bug`doy	20,6	61,5	qalampir	4,9	111,4
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar					
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	323,1	113,1	farmatsevtika mahsulotlari	7,0	2,5 b.
ammiak	1,3	20,0	karbonatlar; peroksokarbonatlar	9,8	77,2
o`g`itlar	92,2	83,2	kimyoviy shtapelli tola	4,4	102,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari					
tabiiy gaz	1587,0	175,6	qayta ishlangan neft mahsulotlari	21,8	47,9
elektroenergiya	118,5	127,4	qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari	21,3	2,8 b.
Qora va rangli metallar					
mis va mis buyumlari	278,0	88,6	rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari)	148,7	98,7
temir burchaklar, prutkalar va maxsus profililar	120,4	127,0	qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	1,0	27,0
Mashina va asbob-uskunalar					
simlar va kabellar	13,3	76,4	engil avtomobil	26,9	37,9
transformatorlar va akkumulyatorlar	8,5	54,8	avtobuslar va mikroavtobuslar	3,4	136,0


elektr zanjirlarini almashtirish yoki himoya qilish jihozlari	5,7	43,8	yuk vagonlari (tsisternalarni qo`shgan holda)	9,4	13,4 b.
avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar	2,6	130,0	yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	4,9	106,5
monitorlar va proektorlar	6,0	150,0	tirkama va yarim tirkamalar	1,3	144,4
Boshqalar					
to`qimachilik mahsulotlari	870,4	115,6	oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	7,0	86,4
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar	59,0	84,0	shisha va shisha buyumlar	7,1	91,0
qog`oz, karton va matbaa buyumlari	12,6	3,7 b.	daraxtlar va boshqa o`simliklar	1,7	106,3
sopol buyumlar	9,8	103,2	velosipedlar, tepkili avtomobillar; qo`g`irchoqlar uchun kolyaskalar; qo`g`irchoqlar	1,3	92,9

Eksport tarkibi, %



**Respublika
eksportida
asosiy hamkor
davlatlarning hajmi,
mln. AQSh doll.**

Xizmatlar eksporti hajmi 1981,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 23,1 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,0 %ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.



Respublikadan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 36,5 % ini tashkil qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko`rishimiz mumkin.

**Respublikaning ayrim davlatlar bilan
eksport tarkibi
(yanvar-avgust oylari)**

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Xitoy Xalq Respublikasi	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Jami eksport	1 286,9	1 389,9	1 310,2	1 737,4
paxta tolasi	7,1	2,7	9,6	51,1
oziq-ovqat mahsulotlari	84,9	113,1	22,2	35,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	75,7	112,0	121,2	113,1
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	272,9	406,1	407,6	750,9
qora va rangli metallar	32,9	25,4	82,0	38,4
mashina va asbob-uskunalar	58,8	42,8	10,8	3,4
xizmatlar	375,5	288,8	453,5	476,5
boshqalar	379,1	399,1	203,3	268,1

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti






2018 yilning yanvar-avgust oylarida jami 776,7 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 586,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`shish sur`ati 60,0 %).

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 487,7 ming tonnadan ko`proq sabzavotlar 218,8 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 253,7 ming tonnaga ko`p miqdorda eksport qilingan. Shuningdek, 204,5 ming tonna meva va rezavorlar 289,6 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 38,7 ming tonnaga ko`pdir.

Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining
asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-avgust			2018 yil yanvar-avgust		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
 Qozog`iston	283,1	200,5	54,8	400,9	293,8	50,1
 Rossiya	87,0	65,2	17,8	140,0	100,3	17,1
 Qirg`iziston	32,8	20,7	5,7	59,2	52,6	9,0
 Afg`oniston	22,4	18,9	5,2	47,8	34,8	5,9
 Xitoy	6,4	5,0	1,4	29,0	21,0	3,6
 Vetnam	0,9	0,6	0,2	22,0	14,2	2,4
 Turkiya	14,2	14,7	4,0	13,3	14,4	2,5
 Pokiston	1,4	0,9	0,2	15,4	12,0	2,0
 Eron	5,3	6,4	1,7	8,0	6,6	1,1
 Ukraina	3,3	2,4	0,7	6,5	4,6	0,8
 Belarus	2,1	1,9	0,5	4,2	4,1	0,7
 BAA	4,4	3,5	0,9	3,9	3,3	0,6
 Iroq	5,3	6,4	1,7	3,0	3,2	0,5
 Xindiston	14,1	8,9	2,4	4,1	2,7	0,5
 Latviya	2,3	1,6	0,5	2,9	2,3	0,4
 Ozarbayjon	1,3	1,3	0,4	2,1	2,2	0,4
Boshqalar	9,9	6,8	1,9	14,6	14,1	2,4

**To`qimachilik
mahsulotlari
eksporti**

2018 yilning o'tgan davri mobaynida 870,4 mln. AQSh dollari miqdorida to`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2017 yilning mos davriga nisbatan 15,6 %ga o'sib, umumiy eksport hajmining 10,1 %ini tashkil qildi. eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (57,5 %), tayyor to`qima matolar va tikuvchilik kiyimlari (22,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 305 turdan ortiq mahsulotlar dunyoning 54 ta davlatiga eksport qilindi.



Paxtadan yigirilgan ip
500,8 mln.AQSH dollari



Tayyor va to`qima
matolar va tikuvchilik
kiyimlari
196,9 mln.AQSH dollari



Paxtadan qazlamalar
40,9 mln.AQSH dollari



Gilamlar
19,2 mln.AQSH dollari



Naqshli mato
44,1 mln.AQSH dollari



Paxta, paypoq va mato
bo'lmagan materiallar,
argon mahsulotlari
16,3 mln.AQSH dollari



Boshqa tovarlar
5,8 mln.AQSH dollari



Ipak va ipak
mahsulotlari
23,4 mln.AQSH dollari



Boshqa tayyor
to`qimachilik mahsulotlari
23,0 mln.AQSH dollari



Respublikaning importi

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 12,0 mlrd. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 31,2 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (40,1%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,4 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (9,1 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	12020,6	131,2	100,0	4657,4	147,0	100,0	7363,2	122,9	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	1095,4	122,7	9,1	807,9	190,0	17,3	287,5	61,5	3,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1606,1	107,0	13,4	308,3	111,8	6,6	1297,8	105,9	17,6
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	608,5	134,8	5,1	582,6	134,3	12,5	25,9	146,3	0,4
Qora va rangli metallar	1134,3	134,0	9,4	790,4	143,1	17,0	343,9	117,0	4,7
Mashina va asbob uskunalar	4823,0	145,7	40,1	697,8	179,8	15,0	4125,2	141,1	56,0
Xizmatlar	1467,6	126,3	12,2	647,0	118,6	13,9	820,6	133,1	11,1
Boshqalar	1285,7	129,1	10,7	823,4	150,6	17,7	462,3	103,0	6,3

2018 yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan
ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
shakar	271,6	x	hayvon yoki o`simlik yog`- moylari	35,5	123,7
bug`doy	169,3	147,1	qandolat mahsulotlari	27,9	109,0
un	81,3	131,3	pista moyi	14,8	23,7
tayyor hayvon yemi	82,3	145,9	margarin	19,0	85,2
choy	35,5	89,0	tsitrus mevalar	15,8	126,4
kartoshka	36,5	2,0 b.	go`sht va yarim tayyor oziq- ovqat mahsulotlari	10,2	172,9
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar					
farmatsevtika mahsulotlari	541,2	93,3	o`simliklarni o`stirish regulyatorlari	40,9	124,3
plastmassa va plastmassa buyumlar	354,9	115,3	kimyoviy zarralar	38,6	112,5
kauchuk i rezina mahsulotlari	139,8	135,7	kimyoviy shtapelli tola	39,1	100,5
organik kimyo birikmalari mahsuloti	86,6	103,5	aralashmalar va erituvchilar	33,2	129,7
parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	93,9	110,7	kaustik soda	24,0	134,1
bo`yoq ekstraktlari	81,2	101,6	kimyoviy va mineral o`g`itlar	10,9	2,2 b.
energiya manbaalari va neft mahsulotlari					
neftni qayta ishlash mahsulotlari	353,7	105,6	aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir	16,0	136,8
neft xom-ashyosi	182,2	2,9 b.	elektroenergiya	33,6	2,0 b.


Qora va rangli metallar					
qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	1003,3	133,0	rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	131,0	142,5
Mashina va asbob uskunalar					
avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar	510,9	108,6	ekskavatorlar va buldozerlar	217,9	2,8 b.
to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	361,2	2,3 b.	kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrifugalar	192,0	116,8
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	221,3	3,9 b.	engil avtomobillar	136,3	163,8
konditsionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	270,2	135,2	shinalar va pokrishkalar	135,5	164,4
qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunalari	213,9	2,1 b.	tibbiy asbob-uskunalar	112,2	90,0
Boshqalar					
yog`och va yog`och buyumlar	411,8	137,5	boshqa tirik o`simliklar	33,1	137,9
qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar	143,1	102,0	asbest	32,7	156,5
tsement	101,4	7,4 b.	qimmatbaho bo`lmagan metallardan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	22,0	119,6
rangli metall konsentratlari va rudalari	76,6	107,9	o`rindiqli mebellar	16,0	87,9
tosh, gips va keramik buyumlar	56,6	96,1	o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari	13,7	68,8
qurilish majmualari konstruksiyasi	73,6	2,7 b.	yirik shohli mollar	21,9	144,1
shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	44,5	122,6	tirik parrandalar	6,3	116,7

Import tarkibi, %



Xizmatlar importi hajmi 1467,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 12,2 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,3 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.







**Respublika
importida asosiy
hamkor
davlatlarning hajmi,
mln. AQSh doll.**









2018 yilning yanvar-avgust oylarida respublikaga 153 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 7 359,2 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 61,2 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va usbob-uskunalar hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

**Mashina va usbob-uskunalar import qilingan
asosiy hamkor davlatlar**

Davlat nomi	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	ulushi, %
 Xitoy	1 344,4	127,5	27,9
 Koreya Respublikasi	728,3	126,1	15,1
 Rossiya	431,4	153,6	8,9
 Turkiya	425,8	2,3 b.	8,8
 Germaniya	320,9	119,8	6,7
 Yaponiya	203,8	2,5 b.	4,2
Boshqalar	1 368,3	x	28,4


**Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan
asosiy hamkor davlatlar**

Davlat nomi	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	ulushi, %
 Qozog`iston	401,0	161,5	36,6
 Rossiya	285,7	176,7	26,1
 Ukraina	99,5	11,1 b.	9,1
 Pokiston	52,8	6,9 b.	4,8
 Xitoy	36,9	94,3	3,4
 Malayziya	32,5	113,3	3,0
Boshqalar	186,8	x	17,1

Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2018 yilning o`tgan davri mobaynida respublika import qilinayotgan tovarlar hajmi avgust oyida eng

**2018 yilda tovarlar
importi dinamikasi**
(oylar kesimida, mln.
AQSh dollari)

yuqori ko'rsatkichni qayd etib, avgust oyida iyul oyiga nisbatan qiymati 243,7 mln. AQSh dollariga ko'proq tovarlar import qilindi va 1654,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



So'nggi yillarda ichki ishlab chiqaruvchilarimizning tashqi bozorda mustahkam o'rin egallashlari va ularning eksportga qaratilgan faoliyatini mustahkamlash maqsadida, Hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojhona imtiyozlari va boshqa imkoniyatlarni yaratilishi natijasida korxonalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni olib kirib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi va tashqi bozorlarda o'z o'rinlarini egallashlari uchun zamin yaratilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
boshqarmasi**
Tel.:71-230-80-42